

QO‘QON XONLIGINING SIYOSIY TARIXI

Lapasov Mirkomil Xasanovich,

Jizzax shahridagi Prezident maktabi o‘qituvchisi

mirkomil.lapasov491@gmail.com

ANNOTATSIYA

XVIII asrdan boshlab Buxoro amirligida mustaqil Qo‘qon xonligi vujudga kelgach, Farg‘ona ajraladi. Buxoro xonligiga tobe hisoblangan Farg‘ona vodiysida XVIII asr boshlarida yangi davlatga – Qo‘qon xonligiga asos solindi. XVIII asrda faqat Farg‘ona vodiysini o‘z ichiga olgan bu davlat XIX asr boshlarida Toshkent vohasi hozirgi Qirg‘iziston Respublikasi, Janubiy Qozog‘iston va Shimoliy Tojikiston hududlarini o‘z ichiga olgan yirik davlatga aylandi.

Kalit so‘zlar: Kitob maslik, Oltin Beshik, Bobur, Samarqand, Hindiston, Tangriyor

KIRISH

O‘rta Osiyoning ko‘chmanchi o‘zbeklar tomonidan zabt etilishi va Shayboniylar davlatining tashkil topishi jarayonida temuriylar avlodiga qarashli bo‘lgan feodal tabaqalar hukmronligiga qaqshatqich zarba berildi. XIX asr o‘rtalarigacha siyosiy vaziyat mamlakat kuchlarini bo‘lish va qirg‘in keltirgan feodal urushlarning kuchayishi bilan tavsiflanadi.

XVI asrda o‘zaro bir-biriga doimo dushman bo‘lgan Buxoro va Xiva xonliklari paydo bo‘ldi. XVIII asrdan boshlab Buxoro amirligida mustaqil Qo‘qon xonligi vujudga kelgach, Farg‘ona ajraladi[1].

Qo‘qon xonligining hukmdorlari haqida gapirganda shuni ta’kidlash joizki, deyarli barcha musulmon tarixchilari va ayrim rus mualliflari xonlar sulolasini Oltin Beshik bilan, u orqali Bobur bilan bog‘lab, Odam payg‘ambarga yetkazadi. Oltin Beshik haqidagi riyoyat shundan iboratki, 1512-yilda Bobur Samarqanddan Farg‘ona orqali Hindistonga qochib ketadi. Qochish paytida Boburning xotinlaridan biri o‘g‘il tug‘adi. Qochoqlarni o‘rab olgan qo‘rqinch ularni yangi tug‘ilgan bolani qarovsiz tashlab ketishga majbur qiladi. Uni qimmatbaho ziynat buyumlari qo‘yilgan beshikka yotqizib, sodiq xizmatkorlardan biriga qoldiradilar. U Boburga yangi tug‘ilgan bolaning taqdiri haqida xabar berishi kerak edi. Bu vaqtda mazkur joyda o‘zbek avlod-ajdodlaridan bir jamiyatni tashkil qilgan qirq, qipchoq, qirg‘iz va ming ko‘chmanchi urug‘larining ovullari bor edi. Xuddi ana shular bolani topib oladilar, unga Oltin Beshik deb nom qo‘yadilar. Bola ming urug‘i ovuliga joylashtiriladi.

Voyaga yetganda xalq unga har bir urug‘dan (qirq, qipchoq, qirg‘iz va ming) bittadan qizga uylanishga imkon beradi. Ming urug‘idan bo‘lgan katta xotini unga yolg‘iz o‘g‘il tug‘ib beradi. Unga Tangriyor deb ism qo‘yadilar, boshqacha qilib Xudoyor yoki Ilik Sulton deb atay boshlaydilar. Bu yerda shuni aytish lozimki, Boburning o‘zi Oltin Beshik haqida hech narsa demaydi, tarixchilar ham, Boburning zamondoshlari ham uni tilga olmaydilar. Shuning uchun bu rivoyatni og‘izdan-og‘izga o‘tib kelgan afsonaviy gap yoki Qo‘qon hukmron doiralarining o‘z shajaralarini u bilan bog‘lash va o‘z hokimiyatlarini barqaror qilish, mustahkamlash maqsadida to‘qigan rivoyat deb hisoblash mumkin.

Rivoyatlarga ko‘ra, Oltin Beshik 1545-yilda vafot etadi, uning o‘g‘li Tangriyor keyinchalik Farg‘onaning hukmdori bo‘ladi, lekin xon emas, balki biy deb ataladi. Bu nom uning avlodlaridan to Olimxongacha berilgan. “Birinci xon Shohruxning taxtga o‘tirishi, - deb yozadi akademik V.V. Bartold, – qo‘rg‘on (qal’a ichidagi harbiy inshoot) ning qurilishi bilan bog‘liq bo‘lib, boshqa qo‘rg‘on keyinchalik Eski O‘rda deb nomlangan, uning o‘g‘li Abd-al-Karim tomonidan qurilgan (1746-yilda vafot etgan)”[2].

Shohruxning taxtga o‘tirishini Mulla Olim “Tarixi Turkiston” asarida qiziqarli tasvirlaydi: Targovaga Jankat, Pilaxan, To‘fontepa, Partak, Tepaqo‘rg‘on, Qaynar va boshqa joylarning oqsoqol, aslzoda odamlari to‘planib, Ashurbekning o‘g‘li aqlli, insonparvar Shohruxxon Ashurbek o‘g‘lini xon qilib saylashga qaror qiladilar. Shundan so‘ng Shohruh o‘rda va qo‘rg‘on qurish uchun qulay joy tanlashga farmon beradi. Yuborilgan odamlar “Ko‘k to‘nliklar” yashaydigan ikki soy oralig‘ida joylashgan hududni qulay joy deb hisoblaydilar. Ular bu yerda ark quradilar va uning atrofida saroy va binolar qura boshlaydilar. Shundan keyin Shohruhni taxtga o‘tqazadilar. Xonning saylanish yili 1709-yil deb hisoblaydilar.

Mulla Olim Shohruh 12 yil hukmronlik qilib, hukmronligining o'n uchinchi yilida vafot etadi[3], – deb hisoblaydi. Bundan uning 1721-yilda vafot etganligi kelib chiqadi.

Qo'qon xonligi o'z tasarrufiga Qo'qon, Isfara va Marg'ilon atroflarini qo'shib olgan edi. Shohruhdan uchta o'g'il qoladi: Abduraimbiy, Abdukarimbiy va Shodibiy. Otasining o'rnini o'g'illarining kattasi Abduraimbiy egallaydi.

V. I. Nalivkinning ma'lumotiga ko'ra, 1732-yilgacha uning qarorgohi Tikonto'da qishlog'i bo'lgan. Xuddi shu yili u Qo'qon shahriga birinchi bo'lib asos soldi[4].

Qo'qon haqidagi ma'lumot X asr arab mualliflarining geografiyaga oid asarlarida ham uchraydi. Masalan, Abu Ishoq Ibrohim ibn Muhammad al-Istaxriy "Kitab maslik" asarida bunday deb yozgan edi: "Kimki Xo'janddan Farg'onaning asosiy shahri Axsikentgacha borishni istasa, u Kentdan So'xga bitta manzil va So'xdan Huvaqandgacha – bitta katta manzil, Huvaqanddan Axsikentgacha bir manzil yuradi ..." [5].

Buxoro xonligiga tobe hisoblangan Farg'ona vodiysida XVIII asr boshlarida yangi davlatga – Qo'qon xonligiga asos solindi. XVIII asrda faqat Farg'ona vodiysini o'z ichiga olgan bu davlat XIX asr boshlarida Toshkent vohasi hozirgi Qirg'iziston Respublikasi, Janubiy Qozog'iston va Shimoliy Tojikiston hududlarini o'z ichiga olgan yirik davlatga aylandi.

Ashtarxoni Subxonqulixon vafotidan so'ng Buxoro taxtiga o'tirgan Ubaydullaxon hukmdorligi (1702-1712) davrida xonlikdagi siyosiy vaziyat chigallashib markaziy hokimiyat yana zaiflashdi. Bundan foydalangan Chodak xo'jalari 1709 yilda Farg'onada qo'zg'olon ko'tarib, vodiyni bir qismini egallaydilar. Natijada mustaqil davlat tuzilganligi e'lon qilindi va 1710 yilda o'zbeklarning ming qabilasi boshlig'i Shohruhbiy hokimiyat tepasiga keladi (1710-1721). Dastlab Qo'qon, Namangan, Marg'ilon, Konibodom, Isfara va ular atrofidagi qishloqlarni o'z ichiga olgan bu davlat hududi Shohruhbiyning o'g'li va vorisi Muhammad Abduraximbiy (1721-1733) taxtga o'tirganidan keyin ancha kengayadi. U Andijon va Xo'jandda o'z hukmronligini o'rnatib ma'lum muddat Buxoroga tegishli Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlarini egallab, Shahrisakbzga ham tahdid soladi. Abdurahimbiy Qo'qon qishlog'i yaqinida yangi shahar qurdira boshlaydi. U 33 yoshida kasallanib vafot etadi va taxtga ukasi Abdukarimbiy o'tiradi. U yangi shahar qurilishini tugallab, poytaxtni Tepaqo'rg'ondan Qo'qonga ko'chiradi. Shu tariqa yangi shahar – Qo'qon shahri davlatning poytaxti bo'lib qoldi va keyinchalik bu davlat shahar nomi bilan Qo'qon xonligi deb atala boshladi. Abduraximbiyning hukmronligi davrida davlat ancha mustahkamlandi, hududlari kengaydi. 1745 yilda Farg'ona vodiysiga hujum qilgan qalmoqlar quvib chiqarilib ular bosib olgan O'sh, Andijon, Marg'ilon shaharlari qaytarib olindi.

Abduraximbiy vafotidan keyin bir qancha vaqt davlat tepasida xonlar tez-tez almashib turdilar. Nihoyat uning nabirasi Erdonabiy ikkinchi bor hokimiyatni qo'lga kirtiadi. 1755-1769 yillarda taxtni boshqargan Erdonabiydan so'ng taxtga Shohruhbiyning uchinchi o'g'li Shodibekning farzandi Sulaymonbek o'tiradi. U 6 oy hukmronlik qilganidan keyin suiqasd natijasida o'ldiriladi va taxtni 1770 yilda Norbo'tabek (1770-1801) egallaydi. U markaziy hokimiyatni mustahkamlashda ancha muvaffaqiyatlarga erishdi. Chust va Namanganda ko'tarilgan g'alayonlarni bostirganidan so'ng bu shaharlarga o'ziga sodiq kishilarni hokim etib tayinladi. U Xo'jand shahrini ham o'z hokimiyati ostiga olishga erishadi. 1799 yilda Toshkent shahrini egallashga ham urinib ko'radi, lekin uning qo'shini mag'lubiyatga uchradi.

Norbo'tabek 1801 yilda vafot etganidan so'ng taxtga katta o'g'li Olimbek o'tiradi. Garchi u qisqa vaqt taxtga o'tirgan bo'lsada, uning davrida (1801-1810) Qo'qonning siyosiy mavqei ancha oshdi. Dastlab u harbiy islohotlar o'tkazib, qo'shinni ancha kuchaytirdi. Harbiy yurishlar qilib Angren voxasini, Chitmkent va Turkistonni o'ziga bo'ysundirdi. Natijada u Rossiya imperiyasi bilan bevosita savdo-sotiq olib borish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Qo'qon davlati kuchayib borishi bilan uning siyosiy maqomi ham o'zgardi. Agar Qo'qonning dastlabki hukmdorlari "biy", "bek" unvonlari bilan davlatni boshqargan bo'lsalar 1805 yildan bu davlat rasman Qo'qon xonligi deb e'lon qilindi va Olimxon "xon" unvoni bilan hokimiyatni boshqara boshladi.

Markaziy hokimiyatning kuchayib borishi, davlatni boshqarishda xonning cheklanmagan huquqqa egaligi Olimxonga qarshi fitnalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Olimxon o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun ukasi Rustambekni va bir qancha sarkardalarni, din peshvolarini o'ldirtirib yuborgan edi. Yuzaga kelgan fitnaga uning ukasi Umarbek boshchilik qildi. Nihoyat 1810 yilda Olimxon Qo'qonga kelayotganda o'g'li Shohruhxon bilan birga fitnachilar tomonidan otib o'ldirildi va taxtni ukasi Umarxon egalladi. Uning hukmronligi davrida (1810-1822) xonlikda siyosiy vaziyat ancha murakkabligicha qoldi. Chimkent va

Turkistonda g'alayonlar ko'tarildi, o'ratega hokimi xonga itoat etishdan bosh tortdi. Ammo davlatni boshqarishda din peshvolari va sarkardalar bilan ittifoq bo'lib ish tutgan Umarxon bu g'alayonlarni bostirib, xonlik hududini bo'linib ketishdan saqlab qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Набиев Р. Н. Историография Узбекистана, в кн: Очерки исторической науки, Т., М, 1955, С-161
2. Бартольд В. В. Асарлар, 3-жилд, М. 1965, С. 462
3. Мулла Олим. Тарихи Туркистон. 8-10-бетлар
4. Наливкин В. И. Краткая история кокандского ханства. Казан, 1886, С.76. Қўқон анча илгарирок қурилган бу ҳақда юқорида баён қилинди.
5. Материалы по истории киргизов и Киргизии. Вып. 1, М., 1973, С 21